

## Oliy Pedagogik Ta'lif Jarayonida Dialog Metodidan Foydalanish

Seytnazarova Gulnara Aytbayevna<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dialog metodining imkoniyatlari, oliy ta'lif jarayonida dialog metodidan foydalanish usullari, o'quv dialogining shakli, dialog vositasida hamkorlik o'rnatish masalalari muhokama qilingan. Shuningdek dialog metodi vositasida talabalarni babs-munozara, imitatsion o'yin, o'quv vaziyatlarini modellashtirish muhitiga olib kirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Ushbu maqoladan professor-o'qituvchilar, talabalar va tadqiqotchilar uchun metodik manba sifatida foydalanishlari mumkin.

**Tayanch so'zlar:** dialog, dialogik madaniyat, o'quv dialogi, oliy pedagogik ta'lif, professor-o'qituvchi, talaba, hamkorlik, muloqot, mustaqil fikrlash, sub'ekt-sub'ekt munosabatlari.

Talabalarga ta'lif-tarbiya berish jarayonida dialog madaniyatini shakllantirish bir qator pedagogik psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalgan oshiriladi. Dialog o'quv jarayonida muhim o'rinni egallaydi. Dialog birinchi navbatda talabalarning bir birlari va o'zlarini anglash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan bir qatorda bir birlarining ichki olamiga kirishishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

Dialog jarayonida kamdan kam holatlarda bir xil ahamiyatga ega bo'lgan oldindan izohlanadigan didaktik materiallardan foydalilanildi. Dialog yordamida talabalarga umumiy ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni izohlash, ob'ektiv tarzda mavjud bo'lgan aniqlovchilardan foydalanish, ularning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini nazorat qilish uchun qulaylik yaratadi. Dialogning pedagogik ahamiyati o'quv predmeti mazmunini his-tuyg'ular yordamida ifodalash zaruriyati mavjud bo'lganda nihoyatda katta hisoblanadi. Dialog mustaqil izlanish vaziyatlarida ham alohida o'rinni egallaydi.

Professor-o'qituvchilar o'quv materialini bayon qilganda nafaqat uning mazmun mohiyati, alohida elementlari, ijtimoiy tajriba bilan bog'liq jihatlari, ijodiy faoliyat tajribasi bilan aloqadorligi, bilim, ko'nikma va malakalarning rivojlantirish imkoniyatlari, kasbiy faoliyatda tutgan o'rni hamda hissiy kechinmalarini ham bayon qiladilar. Kontekstga asoslangan fikrlar sub'yektiv munosabatlari ya'ni dialogda mavjud bo'ladi. Bunda o'quv jarayoni kommunikatsiyaning turlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'quv dialogi ta'lifning asosiy shakli sifatida mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan. O'quv diaolgiga oid yondashuvlar R.Safarova hamda Z.Xolmatovaning ishlarida yoritilgan. Talabalarning tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lif jarayoni dialogga asoslangan holda tashkil etilishi lozim. Bu jarayonda professor-o'qituvchilar bilan talabalar birgalikda tafakkurning turli ko'rinishlarini namoyon etish, mantiqiy fikrlashga muvaffaq bo'ladi. Ta'lif jarayonining muhim vazifalaridan bir talabalarning bilish faoliyati va mantiqiy fikrlashini jadallahidan iborat. Natijada talabalarda mustaqil, faol tarzdagi ijodiy fikrlash faoliyati rivojlanadi. Talabalar o'quv jarayonida axborotlarni eslab qolish emas balki talabalar mazkur axborotlarni o'zlashtirish jarayoniga faol ishtiroy etish olishlari kerak. Bu jarayonda talabalarning mustaqil tafakkur qilishga yo'naltirilgan faoliyatlarini mustaqil tarzda axborotlar va kasbiy bilimlarni va bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi. Dialog jarayonida talabalar kasbiy bilimlar va axborotlarni professor-o'qituvchilar yordamida o'zlashtirmsandan balki ularni birgalikda mustaqil izlab topishga muvaffaq bo'ladi. Dialog asosida tashkil etiladigan o'quv jarayoni talabalardagi kreativ fikrlash layoqati va o'ziga xos sifatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi



Dialog jarayonida talabalar o‘rganilayotgan pedagogik xodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga muvaffaq bo‘ladilar. Natijada o‘zlarining tasavvurlariga tuzatishlar kiritadilar, idroklarini charxlaydilar, bu esa talabalarning bilish jarayonlarining faollashtirish, o‘quv ko‘lамиni kengaytirishning samarali usul i hisoblanadi.

Ko‘pgina mutaxasislar talabalarning mustaqilligi, faolligi va kreativligini ta’minlash imkoniyatiga egaligini ta’kidaganlar. Shu bilan bir qatorda dialog talabalar bilan talabalar hamda talabalar bilan professor o‘qituvchilar orasidagi munosabatlarning insonparvarlik prinsipi aosida ta’minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Talabalar egallagan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar ular uchun shaxsiy-kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgandagina dialog jarayonining samaradorligi ta’minlanadi. Shuningdek dialog talabalarda ilmiy dunyoqarash, tashabbuskorlik, ijodkorlik sifatlarini shakllantirib kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Kasbiy bilimlar dialog jarayoni sub’ektlarining boshqalar bilan shaxslaaro munosabatga kirishilariga ko‘maklashadi, ongli harakatlanishini ta’minaydi. Shuning uchun ham bilimlarni o‘zlashtirish kasbiy kompetensiyalarini egallash dialog jarayonida nazarda tutiladigan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Dialog o‘qitishning faol metodi bo‘lib, talabalarning o‘quv faolligini rivojlanishiga, o‘zaro yordam ruhida tarbiyalash, hamkorlikka o‘rgatish imkonini beradi. O‘qitishning faol metodi sifatida dialogdan foydalanish talabalarda kasbiy rivojlanish motivatsiyalarini hosil qilish, o‘z mayillari va imkoniyatlarini namoyon etish, talaba shaxsining rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatish, uning kreativ imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay vaziyat yaratadi.

Dialog jarayonida bir shaxsning fikri, uning muloqot mavzusi bo‘yicha siyosiy, axloqiy va boshqa jihatlar asosida tinglovchi tomonidan baholanishiga bog‘liq. Yangi fikr va hissiyotni izohlash, barcha dialog ishtirokchilarining hamfikrliligi, muloqot jarayoni har doim hamkorlikning ifodasidir [1, 360-b].

Dialog metodi talabalarni babs-munozara, imitatcion o‘yin, o‘quv vaziyatlarini modellashtirish muhitiga olib kiradi. Chunki bunday vaziyatlar talabalar tomonidan egalanayotgan kasbiy pedagogik faoliyatning mohiyatini anglashlariga ko‘maklashadi. Natijada ularda zarur kasbiy sifatlar va kompetensiyalarning shakllanishi jadallahadi, kasbiy ko‘nikmalar va kompetensiyalarini takomillashtirish uchun qulay imkoniyat yaratiladi. Dialog jarayoni sub’ektlari bir birlarining faoliyatlariga tanqidiy nazar tashlash, refleksiyalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning kasbiy faoliyatni bajarish imkoniyatlarini kengaytirib hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi.

Sub’ekt-sub’ekt munosabatlariga asoslangan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning mohiyati dialog jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Dialog jarayonida o‘quv munozarasi muhim o‘rin egallaydi. Munozara o‘z mohiyatiga ko‘ra, dialog metodiga asoslanadi. Munozara o‘quv materiali ustida ishslashning eng muhim usuli hisoblanadi. Munozaraning qo‘llanishi talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘quv munozarasining natijalari dialog mavzusiga muvofiq tarzda namoyon bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

R.Safarova, Sh.Allanazarova, Z.Xolmatova, M.V.Klarinlarning ta’biricha o‘quv munozarasi g‘oyalarni o‘zaro almashinishning tizimlashgan shakli bo‘lib, o‘zida hukmlar, fikrlar, qarashlar, aniq va tabiiy holatlarni izlashga oid faoliyatni mujassamlashtiradi. Z.Xolmatova o‘zining ilmiy ishida dialogik madaniyatni quyidagicha tavsiflaydi: “Shaxslararo munosabatning fikriy-qadriyatli, jarayonli qismlari dialogik munosabatlar madaniyati tarkibida bir butun yaxlitlikda o‘z-o‘zini namoyon qilish, o‘zining mavjudligini tasdiqlatish vazifasi sifatida ifodalanadi. Bu o‘rinda dialogik munosabatlar madaniyatining qadriyatli-fikriy sohasi o‘quvchilarni o‘zining mavjud jihatlarini namoyon qilishga undasa, jarayonli sohasi esa mazkur quvvatlarni ro‘yobga chiqarishni ta’minlaydi” [2, 32-b]. Bu jarayonda talabalar o‘zaro fikr almashinishiga muvaffaq bo‘ladilar. O‘quv munozarasi jarayonidagi o‘zaro munosabatlar, hamkorlik va fikr almashinish, savol-javoblar talabalarning o‘z faoliyatlarini mustaqil tashkil etishlariga asoslanadi. Talabalarning bir birlari va professor-o‘qituvchilarga murojaat qilishlari muammoga oid nuqtai nazar, qarashlar va yondashuvlarni har tomonlama muhokama qilishlariga asos bo‘ladi. Aksariyat profeesor o‘qituvchilar talabalarning o‘z faoliyatlarini tashkil



etishlari uchun quylay vaziyat yaratishga intiladilar. Natijada talabalar mustaqil izlanishga oid harakatlarni amalga oshiradilar, birgalikdagi harakatlarni birgalikda bajarishga muvaffaq bo‘ladilar.

Dialog jarayonidagi hamkorlikka asoslangan izlanish quyidagilarda namoyon bo‘ladi: dialog jarayonining sub’ektlari sifatida professor ўqituvchi bilan talabalar, talaba bilan talaba, professor o‘qituvchi bilan talaba, talabalar bilan talabalarning muloqotini ko‘rsatish mumkin. Bu jarayonda ta’lim mazmuniga asoslangan o‘quv faoliyatining natiji muhim ahamiyatga ega. Talabalarning munozaraga asoslangan guruqli faoliyati ham samarali dialog o‘rnatish imkonini beradi. Ta’lim samaradorligini ta’minlashda bahs-munozaraga asoslangan dialog katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda talabalarning monolog shaklidagi nutqiga juda kam o‘rin ajaratiladi. Dialog jarayonida esa talabalar o‘quv faoliyatiga jadal kirishadilar. Dialog metodini qo‘llash natijasida o‘quv jarani dagi aksariyat qiyinchiliklar bartaraf etiladi. Bunda suhbat metodi muhim ahamiyat kasb etadi. Professor-o‘qituvchilar suhbat metodiga alohida e’tibor qaratadilar. Mazkur metod quyidagi imkoniyatlarga ega:

- professor o‘qituvchilarning talabalar bilan dialog shaklida muloqotga kirishishlariga sharoit yaratish;
- dialogga asoslangan suhbat metodidan eng murakkab didaktik topshiriqlarni ham bajarishda foydalanish imkoniyati mavjud;
- talabalar bilan professor o‘qituvchilarning o‘zaro fikr almashinislari uchun quylaylik yaratiladi;
- tashkillashtirishtirilgan o‘zaro yordam va qo‘llab quvvatlash imkoniyatlari kengayadi;
- savollar ustida chuqur o‘ylash uchun savollar vujudga keladi;
- talabalar yangi qonuniyatlar, dalillar, tushunchalarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- nutqiy faoliyatning dialogga asoslangan shakllaridan foydalanishda qulayliklar vujudga keladi;
- muammolarni faol muhakama qilish uchun qulay sharoitlar taqdim etiladi;
- talabalar o‘zlarining turli nuqtai nazarlarini bayon qilishga muvaffaq bo‘ladilar.

Prfessor-o‘qituvchilar suhbat metodidan talabalarning fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish, bilim darajalarini aniqlashga muvaffaq bo‘ladilar. Buning uchun har bir talabaning qulay mavqeni egallashi, dialog jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘z layoqatlarini namoyon qilishi, o‘zlashtirgan bilimlarini tizimli tarzda nqo‘llashi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi, o‘z nuqati nazarini bayon qilishi uchun qulay vaziyat vujudga keltirilida, talabalarning muloqot va shaxslararo munosabatlarga oid ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayoning mazmuni va natijadorligini aniqlashga xizmat qiladi.

Dialog jarayonida talabalar va professor-o‘qituvchilar oldiga bir qator talablar qo‘yiladi: aniqlik va ifodalilikka erishish, ko‘lamdorlik, mantiqiy izchillikka egalik, qo‘llaniladigan didaktik shakllarining oddiyligi va qisqa lo‘ndaligi, betakrorligini ta’minlashdan iborat.

Dialog jarayonida professor-o‘qituvchining savoli va talabalarning unga qaytaradigan javobi ular orasidagi kommunikatsiya va shaxslararo munosabatlarni to‘liq ifodalmaydi. Bu jarayonda formal muloqot amalga oshadi. Dialogga asoslangan munosabatlarning mohiyati chuqur mantiqiy asoslarga ega. Dialogning tashqi ko‘rinishi talabalarning dialogga asoslangan munosabatalni to‘liq ifodalamaydi, o‘zaro munosabatlarni amalga oshirish yoki rad etishdan iborat bo‘lishi mumkin. Muayyan vazifalarning mavjudligi bilan bog‘liq tarzda, ularni yechish darajasi talabalarning hissiy darajasi, jalb etilganligiga ko‘ra o‘zaro munosabatlarga asoslangan vaziyatlarning dialog yoki dialog emaligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Shuningdek funksional-shaxsiy nuqtai nao‘ardan dialogning kasbiy shaxsiy taraqqiyotiga ko‘rsatadigan ta’sirini belgilash imkoniyati mavjud.

Ijodkorlik jarayoni birinchi navbatda yangiliklar kashf etish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, yangi muammolarni aniqlash, muammolar yechishning yangi metodlarini izlab topishdan iborat faoliyatni amalga oshirishni nazarda tutadi. Shunga ko‘ra muammoli ta’lim ijodiy jarayon sifatida nostandard metodlar yordamida nostandard topshiriqlarni bajarishni taqozo qiladi. Muammoli topshiriqlarni bajarish mantiqiy xulosalar chiqarish, muayyan ma’lumotlar asosida ta’lim maqsadiga erishilganini



tasdiqlash yoki inkor etish, topshiriqlarni bajarishning shart-sharoitlarini, yo'llarini ko'rsatib berishni nazarda tutadi. Professor-o'qituvchilar pedagogik hamda shaxslararo munosbatlarni tashkil etish uchun talabalarning o'quv faoliyatini muvaffaqiyatga erishish motivlari bilish motivlarining vujudga kelishiga to'sqinlik qilmasligini nazarda tutgan holda tashkil etadilar. Mazkur faoliyatning korrelyatsiyasi talabalarning bilish motivlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Maxkamov U.A. Dialogning mazmunli muloqotni shakllantirish vositasi sifatidagi ahamiyati. Current Issues of Social Sciences and Humanities DOI: 10.24412/2181-1385-2022-2-358-363. Volume 3 | NUU Conference 2 | 2022 Google Scholar indexed.
2. Xolmatova Z. Boshlan-ich sinf шынчиларда dialogga asoslangan munosabatlar madaniyatini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlari. P.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi. 2019
3. Кларин М.В. Корпоративное образование и обучение в организациях: сели и особенности // Вестник БГУ. «Образование. Личност. Общество». 2016. №1. С.6-16

